INGLIZ TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQ KO'NIKMASINI SHAKILLANTIRISH METODIKASI

Tòxtasinova Mushtariy Anvarjon qizi

Annotasiya: Ushbu tezisda o'quvchilarning nutqini o'stirish masalalari haqida so'z boradi. Shu nuqtayi nazardan, o'quvchilarda o'z fikrlarini muayyan kompozitsion tuzilishda mantiqan asoslangan va bog'langan, og'zaki va yozma shaklda bayon etish malakalarini rivojlantirishni samarali va mahsuldor texnologiyalarini yaratishni taqozo etib kelayotgani keng yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: nutq ko'nikmasi, lingvodidaktika, tmetodika, model.

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ РЕЧЕВЫХ НАВЫКОВ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы развития речи учащихся. С этой точки зрения широко освещается вопрос о том, что развитие у учащихся умения логически обоснованно и связно излагать свои мысли в устной и письменной форме, используя определенную композиционную структуру, требует создания эффективных и продуктивных технологий.

Ключевые слова: речевые навыки, лингводидактика, методика, модель.

METHODOLOGY OF FORMING STUDENTS' SPEECH SKILLS IN ENGLISH LESSONS

Annotation: This article discusses the issues of developing students' speech. From this point of view, it is widely highlighted that the development of students' skills in expressing their thoughts in a logically based and coherent, oral and written form in a certain compositional structure requires the creation of effective

and productive technologies.

Keywords: speech skills, linguistic didactics, methodology, model.

Jahonda tilni muloqot va fikrni ifodalash vositasi sifatida lingvodidaktik asosda o‘rgatishning eng sodda, qulay va samarali usullar orqali tashkil etishni tadqiq etish zamonaviy ta’limning muhim masalalaridan biriga aylandi.

Hozirgi kunda chet tilini o‘rganish hamda o‘rgatish masalasining dolzarblilik ahamiyati tobora rivojlanib bormoqda. Xususan, bu borada birinchi navbatda chet tilidagi og‘zaki nutqni o‘rganish, uni har jabhada tatbiq etish va keng miqyosda rivojlantirish borasida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Mamlakatimizda bugungi kunda chet tiliga bo‘lgan munosabat juda ham jadal rivojlanmoqda. Nafaqat oliy ta’limda, maktab va kollej, litseylarda balkim maktabgacha bo‘lgan ta’limda ham chet tillariga bo‘lgan ehtiyoj ortmoqda. Chet til o‘qitish ruhshunoslarining nazariy fikr-mulohazalariga ko‘ra, nutq muloqot jarayoni emas, so‘zlash yoki gapirish ham emas, nutq- gapirish yang‘lig‘ faoliyat chog‘ida fikrning ro‘yobga chiqishi va ifoda qilish usulidir. Chet tilini o‘rganishda og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda shakllantirishning eng samarali vositalaridan biri muloqot jarayoni hisoblanadi. Og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda bugungi kunda innovatsion mexanizmlar, uslublar yordamchi vosita sifatida ham keng miqyosda foydalanilmoqda. Umumiy qilib aytganda, og‘zaki nutqni rivojlantirishda metodik uslublarga tayanish hamda leksik ko‘nikmalarni chuqur egallash muhim ahamiyat kasb etadi. Nutq murakkab jarayondir, uni o‘rganishda va ifodalashda ko‘plab nazariy hamda amaliy bilimlarga tayangan holda ish yuritish lozim. Og‘zaki nutq ko‘nikmasini rivojlantirish masalasi yuqori sur’atdagi jarayon hisoblanadi.

Prezidentning 2021-yil 6-mayda chet tillarini o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishidagi nutqida: «Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo‘ladigan yangi tizimni yo‘lga qo‘yish vaqti-soati keldi.

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Prsezidentining 2017-yil 7-

fevraldagi PQ-4947-sonli «O‘zbekicton Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli «O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847- sonli «O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11- avgustdagi 610-son «Ta’lim muassasalarida chet tillarni o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi. yan darajada xizmat qiladi.

Og‘zaki nutq ko‘nikmasini rivojlantirishda innovatsion metodlardan foydalanish, ularni dars jarayonlarida faol darajada qo‘llash muhimdir. Bu innovatsion metodlarni qo‘llashdan asosiy maqsad, o‘quvchilarni mantiqan fikrlab, berilayotgan mavzu doirasidagi savollarga musatqil javob berish, o‘zo‘zini mustaqil ravishda baholashga qaratilgan. Umuman olganda innovatsion metodlar nafaqat og‘zaki nutq ko‘nikmalarini balki, ingliz tilini o‘rganishdagi keying uchta aspektda ham (o‘qish, yozish va tinglab tushunish) qo‘l keladi. Bugungi kunda ta’lim jarayonida o‘qituvchilarimiz Amerika Qo‘shma Shtatlari va Angliyaning pedagogik tajribalariga tayangan holda innovatsion uslublardan foydalanishmoqdalar. Albatta, og‘zaki nutq ko‘nikmalarini riovjlantirishda yordam beradigan uslublarni kengroq yoritib berish muhim masala hisoblanadi. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida eng ko‘p qo‘llaniladigan usulublardan “Muammoli vaziyat yechimi” (Creative Problem Solving), “Tezkor javob” (Quick answers), “Chigil yozdi” (Warm-up exercises), “Hikoya zanjiri” (A chain story), “Rolli o‘yinlar” (Acting characters) kabilari og‘zaki nutq ko‘nikmalarini

rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Darslarda bunday innovatsion usullardan foydalanish o‘qituvchi hamda o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlikni, hamda o‘quvchining nutqiy faoliyatini rivojlantiradi. Chet tiliga bo‘lgan ehtiyoj yurtimizda yuqori darajada rivojlanmoqda. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 2022-yilning 6-maydagi chet tillarini o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilishda ko‘plab yangi loyihalar yuzasidan suhbat bo‘lib o‘tdi. Oliy ta’limda ham, maktab,kollej,litseylarda va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ham chet tillarini rivojlantirish borasidagi ishlar to‘g‘risida so‘z yuritildi. Og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha ham barcha muassasalarda turli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, Maktabgacha ta’lim muassasalarida 5 ta metodika bo‘yicha bolalarga saboq berilmoqda. Bulardan eng muhimi “ Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari” dir. Nutq o‘stirish bolalarning so‘z boyligini yanada oshirishga, muloqot qobiliyatini rivojlantirishga, bolaning tafakkurini mukammallashishiga yordam beradi. Tilning barcha jarayonlarining o‘ziga xos jihatlari, o‘rganish metodlari va mexanizmlari mavjud. Og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishning ham o‘z mexanizmlari bordir.

Mamlakatimizda chet tillarni o‘qitish metodikasiga oid muammolar, ingliz tilida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ahamiyati masalalari to‘g‘risida bir qator olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, J.J.Jalolov, O‘.H.Hoshimov, T.K.Sattorov, L.T.Axmedova, D.U.Xoshimova, M.D.Jusupov, G.X.Bakiyeva, D.R.Babayeva, F.M.Rashidova, F.Sh.Alimov, D.M.Isroilova, D.N.Gafurova, S.A.Misirov, B.H.Xoliyorov kabi olimlar ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan. Ingliz tili lingvodidaktkasida muammo doirasida o‘tkazilgan tadqiqotlarda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy nutqini o‘rganishga asosiy diqqat qaratilgan.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Жалолов Ж. “Чет тили ўқитиш методикаси” - Т.: Ўқитувчи, 1996.

2. Зарипова Р.А. “Чет тиллар ўқитиш методикасидан қўлланма” - Т.:Ўқитувчи, 1986.

3. Зимняя И.А. “Психология обучения иностранным в школе». - М.:Просвещение, 1991.

4. Ляховицкий М.В. «Методика преподавания иностранных языков»: Учебное пособие. -М.: Высшая школа, 1981. 14

5. Toshboyeva, B. O. "Pedagogical approaches to early foreign language teaching." International Bulletin of Applied Science and Technology 11 (2023): 14.

6. Тошбоева, Барно. "Особенности обучения произношению на английском языке в начальных классах средней школы." (2018).

7. Khakimjonovna, B. P., Ogli, U. I. I., & Ogli, V. O. N. (2023). Using Kahoot Technology in Teaching English. Строительство и образование, 4(5-6), 157-163.

8. Ботирова, П. Х. (2023). Подход к описанию связной речи. Строительство и образование, 3(5), 49-61.